

Jabborov Farrux Tirkashevich

Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Beznas va oliy maktab magistri

Annotatsiya: Maqolada boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish sub'yekti va ob'yekting o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruv sohasining boshqaruv ob'yekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Bu esa ushbu maqolada o'rin olgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv, rahbarlik faoliyati, ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya.

Jahon ta'lim sohasidagi tendensiyalar shu tizimning tarkibiy qismi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida boshqarish talabini qo'yimoqda. Jumladan YUNESKO tomonidan 2030- yilgacha belgilangan beqaror rivojlanish maqsadlarida bolalarda mustaqil-ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil qilish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu o'z o'zidan malakali pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalar faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi.

Yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qator yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amalyotda joriy etish, boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish usullariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyatini integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy-innotvasion faoliyatini qo'llab quvatlashga qaratilgan islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida ham maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16- dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmon,¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarorlarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish zamonaviy boshqaruv shakllarini tashkil etish maktabgacha ta'lim xodimlarini zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib borish hozirgi kunning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekistonda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmon,

tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi².

Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab, etiladi, Har bir ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanini chuqur egallashi lozim.

Rahbar xodim boshqaruv kompetenligini rivojlantirishning respublikamizdagi mavjud holati, rivojlanishning nazariy-metodologik asoslari, ta'lim tizimi sifat monitoringi tahlili masalalari mamlakatimiz olimlaridan G'.J.Yo'ldoshev, R.X.Djurayev, E.A.Seytxalilov S.T.Turg'unov, Sh.Q.Mardanov, M.A.Yuldashev, M.M.Vahobov³ ilmiy tadqiqotlari to'laqonli yoritilgan. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, rahbar xodimlarning kasbiy kompetenligini rivojlantirish, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini korporativ yondashish asosida tashkil etish va boshqarish masalalari M.T. Hamdamova, Sh.I.Nizamova, N.K.Mamanazarova, G.A. Omanova, M.E.Gapparovalar tomonidan o'rganildi. Maktabgacha ta'lim boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sirasiga kiritish mumkin: ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish; boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish sub'yekti va ob'yektining o'zaro munosabati, boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.

Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqsadli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir.

Boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish sub'yekti va ob'yektining o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruv sohasining boshqaruv ob'yekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Chunonchi, iqtisodiyotni rivojlantirishda 90-yillarning o'rtalaridan ko'zga tashlangan siljishlar mamlakatimizda butun boshqaruv apparatini muayyan o'zgartirishni talab qildi, bu hol 1997 yildan boshlangan ta'lim va kadrlar tayyorlashdagi islohotlar majmuida o'z ifodasini topdi. Natijada ta'lim va uni boshqarish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti talablariga mos tushgan holda barqaror rivojlanish tamoyilini kasb etdi.

Boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalash jarayonlarining kuchayishini ham ta'limni boshqarishning umumiy qonuniyatlariga kiritish mumkin. Qonuniyat, birinchidan, boshqaruvda mehnatning bundan keyin ham gorizontal va vertikal taqsimotini aks ettiradi, bu hol boshqaruvning rivojlanganligi, boshqariladigan tizimlar ko'lamini kengayganligi, yangi funksiyalar va faoliyat turlari paydo bo'lganligi bilan bo'liqdir. Ikkinchidan, mehnat taqsimoti uning muvofiqlashtirilishini, ya'ni boshqaruv mehnatini kooperatsiyalashda o'z ifodasini topadigan boshqaruv sub'yektlari ishi muvofiqlashtirilishini taqozo qiladi.

Agar umumiy qonuniyatlar umuman boshqaruvga xos bo'lsa, xususiy qonuniyatlar boshqaruvning ayrim tomonlari va tizimlari uchun xosdir.

Quyidagilarni xususiy qonuniyatlar sirasiga kiritish mumkin: boshqaruv funksiyalarining

² Sh.Mirziyoyev "Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish" xususidagi majlis

³ Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. «Тafakkur-Bo'stoni», 2012. Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари бошқарув фаолиятининг назарий асослари: Пед.ф.д. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 363 б.

o'zgarishi, boshqaruv bosqichlari sonining maqbullashtirilishi, boshqaruv funksiyalarining jamlanishi va nazoratning keng tarqalish qonuniyati kabilar.

Rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta'lim muassasasi jamoasi a'zolarining kuch-g'ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo'lmagan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo'yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o'z sabablariga ega bo'lgan holda, o'z oldilariga o'zlari maqsad qo'yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o'zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa, ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to'liq safarbar etmaydilar.

“Yangiliklarga hozirgi vaqtda o'tmish va kelajakni namoyon qila olish xos bo'lib, faoliyatdagi hisob nuqtasidan boshlangan yo'nalishning boshlanishi bo'lib sanaladi”⁴.

Boshqaruv – bu barcha sub'yektlarning tashkilotning paydo bo'lishi, barqarorlashuvi, optimal amal qilishi va albatta rivojlanishini ta'minlovchi maqsadga qaratilgan faoliyatidir. Mazkur ta'rif ikkita muhim momentni qayd etadi: birinchidan, istalgan boshqaruv maqsadga qaratilgan faoliyatdir; ikkinchidan, boshqaruv qolgan faoliyat turlaridan o'zining maqsadi bilan farq qiladi⁵.

Birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo'lsa, ijrochilar bu jarayonga tuzatish kiritishni talab qiladigan qandaydir ichki va tashqi shart-sharoit o'zgarmagunga qadar nimani, qayerda va qay yo'sinda bajarishlarini bilishgandagina u muvaffaqiyatli kechadi. Bu o'zgarishlar rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xavf tuQdirishi yoki, aksincha, qandaydir yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Boshqaruv yuz berayotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Boshqaruv nazorat tufayli o'zi usiz faoliyat yuritmaydigan eng muhim tarkibiy qism — qayta aloqaga ega bo'ladi. Nazorat boshqaruvning «ko'zini ravshan» va o'zgarishlarga nisbatan ta'sirchan qiladi. Ushbu o'zgarishlarga munosabat esa rejalashtirish, tashkil etish va rahbarlik qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada boshqaruv davrasi yopiq holga keladi.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish va nazorat qilish murakkab tuzilmaga ega bo'lib, o'zi ham ko'plab boshqa ishlardan tashkil topadi. Masalan, u rejalashtirish, vaziyatni tahlil etish, prognozlash, maqsad qo'yish, samaradorlikni baholash, ish rejasining biron-bir variantini tanlash haqida qaror qabul qilish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Rahbarlik qilish qo'l ostidagi xodimlarga topshiriqlar berish, jamoa ahvolini tahlil qilish, qo'l ostidagi xodimlarning ishini baholash, taqdirlash va jazolash haqida qarorlar qabul qilish, xodimlarni xabardor qilish, nizoli vaziyatlarni hal qilishni va h. k. ko'zda tutadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda bitta emas, balki ko'plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar iyerarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiy turkumida boshlanqich va umumiy o'rta ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko'rsatiladi. Bu turkumlar ham, o'z navbatida, murakkab tuzilmaga ega⁶. Masalan, boshlang'ich ta'limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o'rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish

⁴Voroshilova L.L. Inovatsionnaya Voroshilova L.L. Инновационная педагогическая деятельность: понятийный анализ //Проблемы педагогического образования. Сб. научн. ст.; Вып. 21/ Под ред. В.А. Слостенина, Е.А. Левановой. - М.,2005.

⁵Дроздов И.Н. Управление изменениями и организационная культура. Владивосток, 2002.

⁶ Qurbonov Sh., Sayitxalilov E. "Ta'lim sifatini boshqarish" -T.: Turon-Iqbol, 2006-yil 592-bet

turkumlari ajratiladi.

Rahbar faoliyatiga baho berishda ta'lim samaradorligi tushunchasini ham e'tiborga olish talab etiladi. Vazifalar va ularning bajarilish ketma-ketligi, bajarilish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Manbalar tahlilidan kelib chiqib aytish joizkitaym menejmenti bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, faoliyatni oldindan rejalashtirish, bajariladigan vazifalarning yo'nalishini aniqlash, shuningdek, maqsadga erishishda natijalarni oldindan aniqlash va nazorat qilish yo'nalishlarida keng foydaniqlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: —O'zbekiston, 2017. 48 b.
2. Voroshilova L.L Inovatsionnaya ВорошиловаЛ.Л. Инновационная педагогическая деятельность: понятийный анализ //Проблемы педагогического образования. Сб. научн. ст.; Вып. 21/ Под ред. В.А. Сластенина, Е.А. Левановой. - М.,2005.
3. Дроздов И.Н. Управление изменениями и организационная культура. Владивосток, 2002
4. Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа.